

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024



No 8

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 200 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 7-avgustda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyea Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Benchmarking asosida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshlik xususiyatini oshirish.....	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zaynutdinova Umida Djalolovna	
Mehnat resurslarini samarali boshqarish orqali ish bilan bandlikni ta'minlash	20
Shakarov Zafar Gafforovich	
Трансформация человеческого капитала в условиях цифровизации и внедрения искусственного интеллекта в банковскую экосистему	24
С.С. Исмаилов	
“Kreativ iqtisodiyot” va “kreativ industriya”: mohiyati, nazariy jihatlarining tahlili	32
Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	37
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Don mahsulotlari tarmog'ida mavjud kamchiliklar va ularning yechimlari	41
Sh.B. Donayev	
Eksportni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir	45
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatchiligini tashkil etish.....	49
Idirisov Alisher Otajonovich	
Institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishning konseptual jihatlarini.....	53
Sultanov Maxmud Axmedovich	
Poverty in developing countries: new problems and solutions.....	57
Amirdjanova Sitara Sunnat kizi	
Факторы, влияющие на успешное функционирование скандинавской модели развития экономики	61
Вохидова Мехри Хасановна	
Анализ зарубежного опыта методологии оценки финансового потенциала развитых стран	69
Буранова Лола Вахобовна	
Мамлакатimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etishning zarurligi.....	78
Babamatov Tolib Xakimovich	
Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari	83
S.A.Karabayev	
O'zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish yo'llari	90
Yusupov Aziz Shuxratovich	
Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi	95
Gulbayeva Feruza Islamovna	
Oliy ta'lim muassasalarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.....	102
Sherov Alisher Bakberganovich	
Maxsus kiyimlar tikishda foydalaniladigan gazlamalar tahlili	107
Sayidova Maftuna Hamroqul qizi	
O'zbekistonda elektron bank xizmatlarini o'zgartirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	111
Umarova Malika Baxtiyarovna	
Оценка влияния налоговой системы на финансовое состояние организаций.....	116
Умида Юлдашева	
Теоретическое обоснование интернет-маркетинга в социальных сетях.....	120
Арипходжаев Саидамир Фузулиддинович	



Sport tashkilotining marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	127
Ismoilov Sherzod Dilshodovich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda klaster tizimini joriy qilish jarayonlari.....	132
Ziyadullayev G'ayrat Umidulla o'g'li	
Hududlar soliq salohiyatini oshirishda soliq risklarini boshqarishning zamonaviy tendensiyalari	138
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
O'zbekistonning xalqaro bozordagi faoliyatini kengaytirishda marketing strategiyalaridan foydalanish samaradorligi.....	144
Shadieva Madina Djaloliddin qizi	
Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining rivojlanish tendensiyalari.....	148
Jumanazarova Z.K.	
Xalqaro savdoning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri	154
Rashidov Bekzod Ulug'bek o'g'li, Isayev Laziz Baxtiyorovich	
Oliygochlarni optimallashtirishda sinergiya samarasiga erishish yo'llari	158
Adizov Sanjar Rashidovich	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida bank tizimining barqarorligini ta'minlash asosida aholi kambag'allik darajasini qisqartirish	165
Xoliyorov Murod Qahramon o'g'li, Xoliyova Shoxista Qahramon qizi	
Концептуальная основа маркетинга в социальных сетях в туризме.....	174
Касимова Зилола Гуламиддиновна	
O'zbekistonda don mahsulotlari klasterlarida ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini rivojlantirish	182
Alimov G'ayratjon Abduraxmon o'g'li	
Актуальные проблемы и пути решения приватизации государственного имущества в узбекистане	186
Шахзод Сайдуллаев	
Ttijorat bank daromadlaridagi risklarni baholash va boshqarishni takomillashtirish	192
Ahmedov Komron Muhammadaliyevich	
Sanoat korxonalarini iqtisodiy salohiyatini oshirishga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....	196
Quyjanov Xurshid Abdullayevich	
Tashkilotning moliyaviy natijalarini hisobga olishda auditni takomillashtirish masalalari	200
Bakayev Xurshid Maxmudovich	



TIJORAT BANK DAROMADLARIDAGI RISKLARNI BAHOLASH VA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Ahmedov Komron Muhammadaliyevich

«Asakabank» AJ Bank ijro apparati tarkibidagi
Ekspert-tahlil guruhi eksperti

Annotatsiya: Tijorat banklari daromadlaridagi risk darajasini pasaytirmasdan, ularni samarali boshqarmasdan turib daromadni ta'minlashning imkoni yo'q. Bank risklarini boshqarish bank faoliyatini amalga oshirishda yuzaga keladigan risklarni qanday aniqlash bilan bog'liqdir. Ushbu maqolada tijorat banklaridagi daromad riski va uni boshqarishning xorij tajribasi o'rganilgan holda, ularni mamlakatimiz tijorat banklarida tatbiq qilish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Tijorat banki, risk, bank risklari, risk menejmenti, kredit riski, xorij tajribasi, riskning diversifikatsiyalanishi.

Abstract: It is impossible to ensure income without reducing the risk level of income of commercial banks and effectively managing them. Banking risk management is related to how to determine the risks arising during banking activities. This article examines foreign experience in managing and managing income risk in commercial banks, and also provides practical suggestions and recommendations for their implementation in commercial banks in our country.

Key words: Commercial banking, risk, banking risks, risk management, credit risk, foreign experience, risk diversification.

Аннотация: Невозможно обеспечить доходы без снижения уровня риска доходов коммерческих банков и эффективного управления ими. Управление банковскими рисками связано с тем, как определять риски, возникающие при осуществлении банковской деятельности. В данной статье рассматривается зарубежный опыт управления риском доходов в коммерческих банках и его управления, а также даются практические предложения и рекомендации по их внедрению в коммерческих банках нашей страны.

Ключевые слова: Коммерческий банкинг, риск, банковские риски, управление рисками, кредитный риск, зарубежный опыт, диверсификация рисков.

KIRISH

Har qanday iqtisodiy faoliyat foyda olishga qaratilganidek tijorat banklari faoliyatidan ko'zlangan natija – bu birinchi navbatda foyda olishdir. U risk bilan bog'liq bo'ladi. Shu tufayli tijorat banklari oldida turgan birinchi masala – risk va foydalilik o'rtasidagi optimal darajaga erishishdir.

O'zbekistonda bozor munosabatlari tamoyillarining amal qilishi tijorat banklaridan o'z faoliyatlari bilan bog'liq risklarni boshqa xo'jalik subektlariga nisbatan ko'proq o'rganishlarini talab etadi. Chunki, tijorat banklari o'z faoliyati bilan bir tomondan, o'z aksiyadorlari, o'z mablag'larini ishonib topshirgan va bank xizmatlaridan foydalanayotgan mijozlar oldida majburiyatga egadirlar. Bank tizimining samarali ishlashida, iqtisodiyotning muhim tarmoqlari bo'lgan tijorat banklari, iqtisodiyotimizni yanada rivojlantirish va yuksaltirishga xizmat qiladi. Biroq, katta miqdordagi daromadga intilish va spekulativlikni keng qo'llash amaliyotlari natijasida nafaqat tijorat banklarining barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, balki, butun bank tizimiga ham. Chunki banklarning faoliyati doimo xavf-xatarlar bilan bog'liq bo'lib, risklarni to'g'ri baholash dolzarb vazifalardan biridir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Risklarni boshqarishda sug'urta vositalaridan foydalanishni optimallashtirish, umuman zamonaviy talablarga muvofiq risklarni boshqarish tizimini shakllantirish, islohot va modernizatsiyani yanada chuqurlashtirish kabi dolzarb masalalar bo'yicha bir qator xorijiy va mahalliy olimlar, iqtisodchilar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Xorijiy davlatlar iqtisodchi olimlaridan P.Rouz, J.Sinki, rossiyalik iqtisodchilardan E.F.Jukov, G.G.Korobova, O.I.Lavrushin kabi iqtisodchi olimlar o'zlarining tijorat banklari risklari borasida o'z ilmiy qarashlarini darslik



va o'quv qo'llanmalarida bayon etganlar. Jumladan, xorijiy olimlardan O.Afanasevaning fikriga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda banklar uchun qisqa muddatli kreditlar berish uzoq muddatli investitsion kreditlar berishga qaraganda afzal bo'lib, yuqori daromadlilikini va past risk darajasi bilan ajralib turadi [1]. O.I.Lavrushin bank risklariga quyidagicha ta'rif bergan "Bank riski ehtimoliy hodisaning qiymat o'lchovi bo'lib, u yo'qotishlarga olib keladi" [2].

"Bankovskiy menedjment" darsligi muallifi P.Rouz risklarga kengroq tushuncha berib, u bank risklarini quyidagi oltita asosiy turga ajratadi [3]:

- kredit riski;
- valyuta riski;
- likvidlik riski;
- foiz riski;
- operatsion risk;
- bozor riski.


Malakatimiz iqtisodchilaridan tijorat banklari likvidligi borasida Sh.Z.Abdullayeva, T.I.Boboqulov, B.T.Berdiyarov, F.U.Dodiyev, I.T.Jumaniyozov, N.Xidirov [7,8] kabi qator olimlar ushbu masalaga o'zlarining ilmiy maqolalarida, ilmiy ishlarida to'xtalgan holda fikr-mulohaza yuritganlar.

Jumladan, Sh.Z.Abdullayeva bank risklariga o'z ilmiy ishlarida quyidagicha ta'rif bergan, "Bank amaliyotida risk har doim ham kutilmagan hodisa emas. Bank faoliyatining barcha turi risk bilan bog'liq. Bank shu faoliyat turi yoki operatsiya riskli ekanligini bilib turib, shu operatsiyani amalga oshirishga qaror qiladi yoki amalga oshiradi va u barcha hollarda shu operatsiya natijasida yuqori daromad olishni rejalashtiradi" [4].

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarida risklarni boshqarishda asosan P.S.Rouz tomonidan taklif qilingan 6 turdagi risk bo'yicha amalga oshiriladi. Ushbu risk turlari ichida kredit riski o'z-o'zidan boshqa turdagi risklarni keltirib chiqaradi. Shu sababli kredit riski tijorat banklarida eng katta riski hisoblanib, tijorat banklari uni boshqarishga katta e'tibor qaratishadi.

Kredit riskini tahlilini ko'radigan bo'lsak, kredit riski bu berilgan kreditlarning o'z vaqtida to'liq qaytmasligidir [6]. Respublikamiz tijorat banklaridagi so'nggi yillarda bu holatlar bilan bog'liq ko'plab muommoli holatlar kuza-tilmoqda.



1-rasm. Jahonda tijorat banklari aktivlari tarkibida kreditlarning ulushi, foizda.

Manba: www.cbu.uz. www.fred.stlouisfed.org. www.ecb.europa.eu. sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Jahonda tijorat banklari aktivlari tarkibida kreditlar ulushi tahlil qilinganda, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari ko'rsatkichlari 2022-yilda, AQSH tijorat banklari va Yevro hududdagi tijorat bank ko'rsatkichlariga nisbatan yuqori hisoblanadi. Lekin AQSH tijorat banklari va Yevro hududdagi tijorat banklarida aktivlar tarkibida kreditlardan tashqari qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar salmog'i yuqori hisoblanadi. O'z navbatida, tijorat banklarining kreditlash imkoniyatini yanada oshirish ular kreditlarining sifatiga bog'liq. Bu esa, banklarning kreditlash samaradorligini oshirishni talab etadi. Kreditlar banklar uchun asosiy daromad manbai bo'lib, kreditlar bo'yicha foiz stavkalari odatda qimmatli qog'ozlarga nisbatan yuqori bo'ladi. Masalan, 2022-yil yakunida AQSH banklari tomonidan barcha aktivlarning 56,1 foizini kreditlar tashkil etdi. Kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi 4,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, banklar tomonidan sotib olingan qimmatli qog'ozlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi faqat 2,5 foizni tashkil etdi. Shunday qilib, agar bank kredit portfeli hajmi tezroq sur'atlarda oshishi mumkin bo'lsa, uning bahosi oshadi. AQSHdagi kichik banklarda tijorat, chakana va boshqa kredit tulari kengaytirilib, moliyaviy barqarorlik va zararni kamaytirish imkoniyatlari, yirik banklari esa risk darajasi yuqori tijorat kreditlarini berishda ustuvorlik kuchaytirilmoqda (1-rasm).

Ushbu risk turini boshqarishda xorij tajribasini ko'radigan bo'lsak, kredit portfelini diversifikatsiya qilish orqali bu riskni kamaytirish mumkin. Ya'ni, tijorat banklari kreditining 25 % dan ortiq qismi bitta tarmoq korxonalariga ajratilmasligi kerak. Kredit portfelining tarmoq xususiyatiga ko'ra diversifikatsiyalash bo'yicha me'yoriy daraja 25 % bo'lsa-da, ko'pchilik AQSH va Yevropa banklarida ushbu me'yoriy chegara 10 % qilib belgilangan. Bizda esa ayrim banklar tomonidan qishloq xo'jaligi, uy-joy qurulish va sanoat tarmoqlariga 40 % dan ortiq kreditlar ajratiladi.

Kredit portfelini diversifikatsiyalash usulidan foydalanishda bank kreditlarini turli sohalaridagi kompaniyalarga, kichik miqdorda qisqa muddatlarga va ko'proq mijozlarga berish maqsadga muvofiq. Ya'ni, kreditlarni diversifikatsiya qilishda berilgan kreditlarning ta'minlanganligini hisobga olish yo'li bilan kreditlar bo'yicha risklarni kamaytirib, bank undan foyda olishga erishishi mumkin.

Kredit portfelini diversifikatsiyalash usulidan foydalanishda sohalar bo'yicha berilgan kreditlarning to'liq qaytmaslik riskini topish uchun Bayes formulasidan foydalaniladi [5]. U quyidagicha ko'rinishga ega:

$$R_A(B_n) = \frac{R(B_n)R_{B_n}(A)}{R(A)}$$

bu yerda, $R(B)$ – sohalariga berilgan kreditning jami berilgan kreditdagi ulushi; $R(A)$ – jami berilgan kreditlarni qaytmaslik ehtimoli.

Ushbu formula orqali biz iqtisodiyot sohalariga ajratilgan kreditlarning qaytmaslik riskini hisoblashimiz mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kreditlash jarayoni juda ko'p va turli xil risklar bilan bog'liq bo'lib, kreditlarni belgilangan muddatda qoplanmaslik muammosini keltirib chiqaradi. Shu sababli kredit tashkilotlari o'z mijozlariga kredit berishda, mijozning kreditga layoqatligini tahlil qilish kredit riskini oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek hozirgi kunda kredit riskini boshqarishda zamonaviy moliyaviy texnologiyalardan foydalanish ham kredit riskini oldini olishda samarali usullardan biri hisoblanadi. So'ngi yillarda respublikamizda bu borada xorijiy mamlakatlardan tijorat banklariga yangi texnologiyalar olib kelindi va "Skoring" tizimi tashkil etildi. Bu tizim mijozning kreditga layoqatligini aniqlab beradi va bu yerda inson omili ishtirok etmaydi. Bu esa kreditlash jarayonidan to'g'ri qaror qabul qilishga yordam beradi.

Umuman olganda, tijorat banklari kredit riskini kamaytirishda quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- kredit bo'limi kreditlarni ajratish va qaytarish to'g'risidagi ma'lumotlarni muntazam ravishda tizimlashi va umumlashtirishi kerak. Berilgan kreditlar to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan kreditlar hajmiga ko'ra, kredit olgan mijozlar (shaxslar, davlat organlari, korxonalar, boshqa banklar va boshqalar) bo'yicha tasniflanishi kerak;
- kredit berish uchun aniq vakolatlar belgilanishi kerak, kredit tashkiloti xodimining bilim darajasi qanchalik baland bo'lsa, u imzolaydigan kredit miqdori shunchalik ko'p bo'lishi kerak;
- katta miqdordagi va tahlilali kreditlarni berishda bir nechta banklar birlashadi va birgalikda ushbu kreditni beradi;
- kredit qaytarilmasligini sug'urtalaydigan sug'urta kompaniyalari himzatlaridan foydalanish zarur;
- kreditlarni berish bo'yicha tashqi cheklovlar mavjud belgilash. Aytaylik, bitta mijozga juda katta miqdorda kredit berishga yo'l qo'yilmasligi maqsadga muvofiqdir.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Афанасьева О.Н. Состояние рынка проектного финансирования и факторы, сдерживающие его развития // Деньги и кредит. – Москва, №2. –37 с.
2. Лаврушин О.И. Банковские риски. – М.: "Кнорус", – 232 с.
3. Роуз П.С. Банковский менеджмент. – М.: "Дело", – 268 с.
4. Abdullayeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash. –T.: "Moliya", – 304 b.
5. Fozilchayev Sh.Q., Xidirov N.G'. Moliyaviy risklar nazariyasi. O'quv qo'llanma. –T.: "Iqtisod-moliya", – 248 b. <https://www.researchgate.net>
6. Ulug'bek S. O., Xidirov N. G. Real sektor korxonalari investitsion loyihalarini moliyalashtirishda bank kreditlarining rolini oshirish va kredit riskini hisobga olish masalalari //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 2. – С. 1482–1488. <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/2693>.
7. Khidirov N. Specific features of financing investment activity of industrial enterprises //International Finance and Accounting. – 2020. – T. 2020. – №. 1. – С. 31. <https://uzjournals.edu.uz>
8. Jumaniyozov I. et al. Impact of Development Finance Institutions on Economic Growth: Implications for Reconstruction and Development Fund of Uzbekistan //International Journal of Management Science and Business Administration. – 2018. – T. 4. – №. 2. – С. 84-88.
9. Karimova GA. Qobulov XA Banklarning raqamli xizmatlari turlari va ularning ommabopligini oshirish masalalari. Интернаука: электрон. научн. журн. 2021 Nov;45(190):76-7.
10. Jijun Niu Loan growth and bank valuations The Quarterly Review of Economics and Finance 61 (2016) 185– 191 www.elsevier.com
11. S.Ben Naceura, Katherin Martonb, Caroline Roulet Basel III and bank-lending: Evidence from the United States and Europe / Journal of Financial Stability 39 (2018) 1–27 www.elsevier.com/locate/jfstabil.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

